

**“2016-2022 YILLARDA HIMOYASI E’LON QILINGAN PhD
DISSERTATSIYALARIDA O’ZBEKISTON TARIXI DAVRLARINING
YORITILISH TAHLILI
(07.00.00 – TARIX FANLARI IXTISOSLIGI MISOLIDA)”**

Bokiyev Anvar Axmedovich

Termiz davlat universiteti O’zbekiston tarixi va
manbashunoslik kafedrası o’qituvchisi,
Tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

XXI asr jahon hamjamiyati va insoniyat oldiga kutilmagan global muammolarni qo’ymoqda. Ayniqsa, globallashuv va integratsiyalashuv davrida siyosiy, huquqiy, xalqaro, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarda o’z echimini kutib turgan ko’plab ziddiyatli masalalar ko’ndalang bo’lib turibdi. Eski andozalardan voz kechib, jamiyat ahkomlarini saqlab qolish rivojlangan davlatlar aholisini ham jiddiy o’ylantirmoqdaki, ularning bari bizga ham ta’sir ko’rsatmasligi mumkin emas.

O’zbekistonda so’nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarning asl negizida, xalqimizga barqaror iqtisodiyot, xavfsiz davlat, samarali boshqaruv va ijtimoiy kafolatlarni yaratib berish turibdi. Bu dolzarb masalalarni hal qilishda ilm-fanning o’z o’rni bor. Keyingi yillarda ta’lim tizimini rivojlantirish davlatimiz taraqqiyot strategiyasining markazida turibdi. Ilm-fanni rivojlantirish uchun olimlarimizga katta imkoniyatlar yaratib berilmoqda. 2023 yilning 30-aprelida umumxalq referendumini orqali yangilangan konstitutsiyamizda ham o’qituvchilar va ilm ahliga alohida e’tibor berildi[3]. Chunonchi, yangi tahrirdagi konstitutsiyaning 50, 51, 52 va 53-moddalarida fuqarolarimizning ta’lim olish, o’qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini, har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, intellektual mulkning muhofaza qilinishi kabi huquqlari mustahkamlab qo’yildi[4].

Lekin, shuni alohida ta’kidlab o’tish kerakki, har qanday ilmiy tadqiqot mahsuli, u maqolami, risolami, monografiyami, darslikmi yoki dissertatsiyami jamiyat taraqqiyotiga, davlat barqarorligiga va eng muhimi xalqqa xizmat qilishi kerak.

Shu ma’noda, **mazkur maqolamizda** 2016-2022 yillarda 07.00.00-tarix fanlari ixtisosligi bo’yicha O’zbekistonda himoyasi e’lon qilingan PhD dissertatsiyalarining ba’zi bir statistik tahlillarini berishga harakat qilib ko’ramiz[5] va ulardan xulosalar chiqargan holda, tarix fani istiqboli haqida fikr-mulohaza yuritishga harakat qilamiz.

Maqolada tadqiq etilayotgan davr mobaynida 07.00.00 – tarix fanlari ixtisosligi bo’yicha OAK.uz saytida jami 424 ta PhD dissertatsiyalarning e’loni chiqdi. 2017 yilda bu miqdor bor-yo’g’i 6 ta bo’lgan bolsa, 2018 yilda 39 ta, 2019 yilda 48 ta, 2020 yilda 58 ta, 2021 yilda 97 tani, 2022 yilda esa 197 tani tashkil qildi. Statistik tahlilda ko’rib turganingdek, 2017 yilga nisbatan 2022 yilda himoyasi e’lon qilingan dissertatsiyalar soni qariyb 30 barabarga ortgan.

Shu 424 ta dissertatsiyalarning 293 tasi, yani 69,1 % 07.00.01-O’zbekiston tarixi shifri bo’yicha bajarilgan[6]. Bu ko’rsatgichda 2-natijani 39 ta dissertatsiya bilan 07.00.07- Etnografiya, etnologiya va antropologiya shifri tadqiqotlari egallaydi.

Dissertatsiyalar va bajarilgan yo’nalish shifrlarining miqdori 1-jadvalda ko’rsatib o’tilgan⁸.

№	Ixtisoslik shifri	Ixtisosliklar nomi	2017	2018	2019	2020	2021	2022	Jami
1	07.00.01	O’zbekiston tarixi	2	23	30	32	76	130	293
2	07.00.02	Fan va texnologiyalar tarixi					1	1	2
3	07.00.03	Jahon tarixi		4		1		2	7
4	07.00.04	Dinshunoslik (tarix fanlari)	1		1	3	1	2	8
5	07.00.05	Islom tarixi va manbashunosligi (t.f.)	1						1

⁸ Jadvallarda dissertatsiyalar haqida keltirilgan ma’lumotlar oak.uz va zivonet.uz saytlaridan olingan va maqola muallifi tomonidan tahlil qilingan.

6	07.00.05	Xalqaro munosabatlar va tashqi siyosat tarixi					1	3	4
7	07.00.06	Arxeologiya	2	2	4	3	2	8	21
8	07.00.07	Etnografiya, etnologiya va antropologiya		6	4	7	7	15	39
9	07.00.08	Tarixshunoslik, man-bashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari		3	6	4	4	8	25
10	07.00.01				1	3	2	1	7
	07.00.02								
11	07.00.01							1	1
	07.00.04								
12	07.00.01					3	1		4
	07.00.05								
13	07.00.01				1			1	2
	07.00.06								
14	07.00.01						1		1
	07.00.07								
15	07.00.01			1		1	1	3	6
	07.00.08								
16	07.00.01				1				1
	17.00.06 (t.f.)								
17	07.00.07					1			1
	07.00.08								
18	07.00.03							1	1
	07.00.08								
	jami		6	39	48	58	97	176	424

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, dissertatsiyalar miqdori keskin oshgan bo'lsada, tarix fanining 07.00.02 – Fan va texnologiyalar tarixi (2 ta), 07.00.03-Jahon tarixi (7 ta), 07.00.05 – Xalqaro munosabat va tashqi siyosat tarixi (4 ta) va boshqa yo'nalishlaridagi dolzarb tarixiy masalalarga kam e'tibor qaratilgan. Mazkur tahlil tarix fanidagi tadqiqotchilik masalalaridagi muammolarni yaqqol ko'rsatib turibdi.

Endi, PhD dissertatsiyalariga rahbarlik qilgan, taqriz bergan va bajargan tadqiqotchilarimizda olim ayollarimizning ulushi haqida fikr yuritsak. 2017 yilda dissertatsiya himoyasi e'lon qilingan tadqiqotchilarning 2 tasi olim ayol bo'lgan bo'lsa, 2018 yilda bu ko'rsatkich 11 taga, 2019 yilda 14 taga, 2020 yilda 16 taga, 2021 yilda 28 taga va 2022 yilda 29 taga etdi. Shunday qilib, tadqiq etilayotgan davrda himoyasi e'lon qilingan ayollar soni 120 tani tashkil etadi. Bu ko'rsatkich umumiy miqdorning 28,3 % ni tashkil etadi.

2-jadval. FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYALARINING HIMOYASI E'LON QILINGAN DISSERTANTLAR STATISTIKASI

№	Jinsi	2017	%	2018	%	2019	%	2020	%	2021	%	2022	%	jami	%
1	erkaklar	4	66,66	28	71,79	34	70,83	42	72,41	69	71,13	127	72,159	304	71,6
2	ayollar	2	33,33	11	28,20	14	29,16	16	27,58	28	28,86	49	27,840	120	28,3
	jami	6	100	39	100	48	100	58	100	97	100	176	100	424	100

PhD dissertatsiyalariga ilmiy rahbarlik qilgan olimlar ayollarimizning tarix fanlarini rivojlantirishda alohida xizmatlari bor. 2017-2022 yillarda olimlar ayollarimiz 138 ta PhD dissertatsiyalariga rahbarlik qilganlar. Bu ko'rsatkich umumiy miqdorning 32,5 % ni tashkil etadi.

3-jadval. FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYALARIGA ILMIY RAHBARLIK QILGAN OLIMALARNING ULUSHI

№	Jinsi	2017	%	2018	%	2019	%	2020	%	2021	%	2022	%	jami	%
1	erkaklar	6	100	25	64,10	33	68,75	41	70,68	59	60,82	122	69,318	286	67,4
2	Ayollar	-	0	14	35,89	15	31,25	17	29,31	38	39,17	54	30,681	138	32,5
	jami	6	100	39	100	48	100	58	100	97	100	176	100	424	100

Dissertatsiyalarning ilmiy qiymati, dolzarbligi, ahamiyatini aniqlashda rasmiy taqrizchlarning o'ziga xos o'rni bor. Olimlarimizning bu sohadagi xizmatlarini ham maqolada statistik tahlil qilishga harakat qildik.

Quyidagi 4-jadvalda 2016-2022 yillarda O'zbekistonda himoyasi e'lon qilingan dissertatsiyalarga rasmiy taqriz bergan olimlar statistikasi keltirilgan.

№	Jinsi	2017	%	2018	%	2019	%	2020	%	2021	%	2022	%	jami	%
1	erkaklar	10	83,3	46	58,9	74	77,1	87	75	147	75,7	282	80,1	646	76,2
2	ayollar	2	16,6	32	41,0	22	22,9	29	25	47	24,2	70	19,8	202	23,8
	jami	12	100	78	100	96	100	116	100	194	100	352	100	848	100

Tarix fanlari tadqiqotlarida tarixiy davrlar alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston tarixini davrlashtirish masalasi bo'yicha juda ko'plab ilmiy tadqiqotlar qilingan va olimlar tomonidan turli xil-xil fikr-mulohazalar o'rta tashlangan[1]. Tarixni davrlashtirishda xronologik davrlashtirishning o'ziga xos o'rni bor. O'zbekiston tarixini davrlashtirish masalalari bo'yicha olimlarimizdan akademiklar A.Asqarov va A.Sagdullaevlarning tadqiqotlari tahsinga sazovor[2]. Ilmiy tadqiqotlarda O'zbekiston tarixini xronolik davrlashtirishda quyidagi shablon, boshqalariga nisbatan ko'proq qo'llaniladi:

1. Eng qadimgi davr;
2. Qadimgi davr;
3. Ilk o'rta asrlar;
4. Rivojlangan o'rta asrlar;
5. So'nggi o'rta asrlar;
6. Chor Rossiyasi mustamlakachiligi va milliy o'yg'onish davri;
7. Sovetlar hukmronligi davri;
8. Mustaqillik davri.

2016-2022 yillarda himoyasi e'lon qilingan dissertatsiyalarning **davriy chegarasini (xronologiyasini)** tahlil qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagi 5-jadvalda **PhD dissertatsiyalarida O'zbekiston tarixi davrlarining** yoritilish tahlilini amalga oshirishga birinchi marta harakat qilib ko'rilgan. Bu masalani mukammal tahlil qilish mexanizmi hali ishlab chiqilmagan desak ham xato qilmagan bolamiz⁹:

№	Dissertatsiyalarning davriy chegarasi (xronologiyasi)	2017	2018	2019	2020	2021	2022	jami	%
1	Eng qadimgi davr	2	1	1	1	3	2	10	2,358490
2	Eng qadimgi va qadimgi davrlar	1	1		2	3	3	10	2,358490
3	Eng qadimgi va qadimgi davrlar; Ilk o'rta asrlar						2	2	0,471698

⁹ Jadvallarda dissertatsiyalar haqida keltirilgan ma'lumotlar oak.uz va zivonet.uz saytlaridan olingan va maqola muallifi tomonidan tahlil qilingan.

4	Eng qadimgi va qadimgi davrlar; O`rta asrlar			1				1	0,235849
5	Eng qadimgi va qadimgi davrlar; Ilk va rivojlangan o`rta asrlar			1				1	0,235849
6	Eng qadimgi va qadimgi davrlar; Ilk, rivojlangan va so`ngi o`rta asrlar; Mustamlakachilik va milliy uyg`onish davri				1			1	0,235849
7	Eng qadimgi va qadimgi davrlar hamda Sovet va mustaqillik davrlari						1	1	0,235849
8	Eng qadimgi va qadimgi davrlar; Ilk va rivojlangan o`rta asrlar hamda Mustamlakachilik va milliy uyg`onish davri; Sovet va mustaqillik davrlari						1	1	0,235849
9	Eng qadimgi davrdan to hozirgi kungacha			1	2		1	4	0,943396
10	Qadimgi davr	1				1	2	4	0,943396
11	Qadimgi davr va ilk o`rta asrlar			2		1	2	5	1,179245
12	Qadimgi davr; Ilk va rivojlangan o`rta asrlar					1	1	2	0,471698
13	Qadimgi davr; Ilk, rivojlangan va so`ngi o`rta asrlar						1	1	0,235849
14	Qadimgi davrdan to hozirgi kungacha			1	3	3	4	11	2,594339
15	Ilk o`rta asrlar		2	1	4	3	6	16	3,773584
16	Ilk va rivojlangan o`rta asrlar			1		1	1	3	0,707547
17	Ilk, rivojlangan va so`ngi o`rta asrlar			1			1	2	0,471698
18	Ilk o`rta asrlar hamda Mustamlakachilik va milliy uyg`onish davri; Sovet va mustaqillik davri						1	1	0,235849
19	Ilk o`rta asrlardan to hozirgi kungacha		1	1			1	3	0,707547
20	Rivojlangan o`rta asrlar		3	2	1	1	11	18	4,245283
21	Rivojlangan va so`ngi asrlar davri				1	1		2	0,471698
22	Rivojlangan o`rta asrlar hamda Mustaqillik davri	1						1	0,235849
23	Rivojlangan o`rta asrlardan to hozirgi kungacha					1		1	0,235849
24	So`ngi o`rta asrlar		2			2	7	11	2,594339
25	So`ngi o`rta asrlar; Mustamlakachilik va milliy uyg`onish davri			1		2	9	12	2,830188
26	So`ngi o`rta asrlar; Mustamlakachilik va milliy uyg`onish davri; Sovet davri		1					1	0,235849
27	So`ngi o`rta asrlar; Mustamlakachilik va milliy uyg`onish davri; Sovet va mustaqillik davrlari			1		2	4	7	1,650943

28	Mustamlakachilik va milliy uyg'onish davri		4	2	4	6	18	34	8,018867
29	Mustamlakachilik va milliy uyg'onish davri; Sovet davrining dastlabki yillari					1	1	2	0,471698
30	Mustamlakachilik va milliy uyg'onish davri; Sovet davri		5	3	3	7	11	29	6,839622
31	Mustamlakachilik va milliy uyg'onish davri; Sovet va mustaqillik davrlari		4	4	5	4	6	23	5,424528
32	Sovet davri		8	10	13	17	28	76	17,924528
33	Sovet va mustaqillik davrlari		1	2	6	10	14	33	7,783188
34	Mustaqillik davri	1	6	12	12	27	37	95	22,405660
	JAMI	6	39	48	58	97	176	424	100

Endi, 5-jadvalda qayd etilgan ko'rsatkichlar asosida PhD dissertatsiyalarining davriy tadqiqot chegaralari haqida ayrim fikr-mulohazalarni ta'kidlab o'tsak. Statistik tahlillar shuni ko'rsatib turibdiki, 2016-2022 yillarda himoyasi e'lon qilingan dissertatsiyalarning katta ulushini Sovet hukmronligi va mustaqillik davrlarining tadqiqi tashkil etgan. 424 ta dissertatsiyadan 76 tasi (17,9%) **Sovet hukmronligi** davriga, 33 tasi (7,78%) **Sovet va mustaqillik** davrlariga, 95 tasi (22,4%) esa bevosita **mustaqillik** davriga tegishli tarixiy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Holbuki, bu tarixiy davrlar qariyb 3000 ming yillik davlatchiligimizning bir asrdan ko'prog'ini tashkil etadi. Agar, Markaziy Osiyo mintaqasini antropogenez jarayoni kechgan hududlardan biri ekanligini inobatga olsak, bu ko'rsatkich yanada boshqacha ahamiyat kasb etadi.

Birinchi va ikkinchi uyg'onish davrlarini o'z ichiga olgan IX-XII va XIV-XV asrlar tarixiga oid tadqiqotlar dissertatsiyalar umumiy ulushining ancha kam ko'rsatkichini tashkil etadi. Chunonchi, **ilk o'rta asrlarning oxiri va rivojlangan o'rta asrlar** tarixiy jarayonlari tadqiq etilgan dissertatsiyalar miqdori 30 tadan oshmaydi. Jadval ko'rsatkichlariga asoslangan holda, bir necha mln yillarni o'z ichiga olgan **eng qadimgi va qadimgi davrlar** tarixiy jarayonlari bevosita yoritilgan dissertatsiyalar miqdori 20 tadan (4,7%) biroz ko'proq ekanligiga guvoh bo'lamiz.

Dissertatsiyalarning xronologik, hududiy, sohaviy va boshqa xususiyatlari haqidagi tizimli va statistik tahlillar bitta maqolaning hajmiga sig'maydi. So'zni shu erda muxtasar qilib shunday xulosa qilish mumkin. Himoya qilinayotgan dissertatsiyalar tizimli (hududiy, xronologik, sohaviy, tarmoqli va boshqalar) tahlil qilinsa, har bir dissertatsiyaning pasporti tuzilsa, statistik tahlillar amalga oshirilsa, ilmiy tadqiqotlardagi bo'shliqlarni va kamchiliklarni ko'rish imkoniyati bo'ladi. Bu esa o'z navbatida yaqin istiqbolda tarix fanlari bo'yicha bajarilayotgan dissertatsiyalarning ilmiy qiymati, dolzarbligi va ahamiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Tarix fanlarining barcha sohalari va xronologik davrlari baravar rivojlantiriladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. Е.В.Зеймаль. К периодизации древней истории Средней Азии. // Центральная Азия новые памятники письменности и искусства. Сборник статей. – М., «Наука», 1987. – С.149-158; Щетенко А.Я. Проблемы хронологии цивилизации эпохи бронзы Средней Азии. //Археологические вести. – 2001. – №. 8. – С. 268-274; А.С.Сагдуллаев. Тарихий даврлаштиришнинг айрим масалалари. // Марказий Осиё тарихи ва археологияси муаммолари. Республика илмий конференцияси материаллари. 2018 йил 28 март. 2-кисм. – Самарканд, 2018. – Б. 36-39.

2. Ўзбекистон тарихи: (Олий ўқув юртларининг номутахассис талабалари учун дарслик). – Т., «О'АJBNT» Маркази, 2003; Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O'zbekiston tarixi. Darslik. – Т., Moliya, 2005. – В. 13-14; Асқаров А.А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Т.,

2007. – Б. 15-23; Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. K. 1 / Mas`ul muharrir: A. Sagdullayev; Taqrizchilar H.Sodiqov va boshq. – T., «Sharq», 2010. – B. 7-8; Эшов Б.Ж. Ўзбекистон тарихини даврлаштириш масалалари. / Ўзбекистон тарихини ўқитиш муаммолари: тажриба ва истиқболлари илмий-услубий анжумани материаллари. – Т., 2011. – Б. 222-227; Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. / А.Асқаров. – Т., «O`zbekiston» NMU, 2015. – Б. 69- 90; Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи: (Энг қадимги даврлардан Россия босқинига қадар). // Масъул муҳаррир: Б.Аҳмедов / . – Т., «Sharq», 2001; Сагдуллаев А., Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи (қадимги даврлардан XIX асрнинг ўрталарига қадар). – Т., «Akademiya», 2006.

3. <https://lex.uz/ru/docs/6449095>

4. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>

5. <https://oak.uz/page>

6. <https://oak.uz/page>

МИЛЛИЙ ОЗОДЛИК ҲАРАКАТИНИНГ ИККИНЧИ БОСҚИЧИ ВА ТАРИХИЙ ТАҲЛИЛЛАР (СУРХОНДАРЁ ОКРУГИДА МИСОЛИДА)

Менглибоев Акмал Холтўраевич,

Денов тадбиркорлик ва педагогика института
тарих ва фалсафа кафедраси ўқитувчиси
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Аннотация. Бизга маълумки 1920-1935 йилларда мамлакатда кескин сиёсий вазият юзага келди. Бир томондан ташқи хавф, иккинчи томондан ички кескинлик амирни ўз қуролли кучларини такомиллаштиришга мажбур қилди. Шу мақсадда мамлакат бўйлаб сафарбарлик эълон қилиниб, 20-45 ёш оралиғидаги йигитлар қўшинга чақирилди. Қўшин етти қисмга бўлинди. Мақолада Сурхон воҳасида ҳам Совет ҳокимиятини ўрнатиш чоралари кўрила бошланганлиги ва шу муносабат билан Термиз шаҳар совети қайта ташкил қилинганлиги ҳақида маълумот оламыз.

Калит сўз: Мустафокулбек, «Мукаддас ислом учун!»; «Она-тупроқ мустақиллиги учун!», Англия империализми, Иброҳимбек.

Аннотация. Как известно, в 1920-1935 годах в стране возникла напряженная политическая обстановка. С одной стороны, внешняя опасность, а с другой стороны, внутреннее напряжение заставляли эмира совершенствовать свои вооруженные силы. С этой целью по всей стране была объявлена мобилизация, и в армию призывались юноши в возрасте от 20 до 45 лет. Армия была разделена на семь дивизий. В статье мы узнаем о шагах, предпринятых для установления советской власти в Сурханском оазисе, и реорганизации Термезского городского совета в связи с этим.

Ключевые слова: Мустафокульбек, «За Священный Ислам!»; «За независимость Родины!», Британский империализм, Иброҳимбек.

Abstract: As we know, in 1920-1935, a tense political situation arose in the country. On the one hand, the external danger and on the other hand, the internal tension forced the emir to improve his armed forces. For this purpose, mobilization was announced throughout the country, and young men between the ages of 20 and 45 were called to the army. The army was divided into seven divisions. In the article, we will learn about the steps taken to establish Soviet power in the Surkhan oasis, and the reorganization of the Termiz City Council in this regard.

Key word: Mustafokulbek, «For Holy Islam!»; «For the independence of the motherland!», British imperialism, Ibrohimbek.

Совет даврида мавжуд сиёсатга ишонтириш, халқнинг тинч-тотув яшашига бўлган муносабатини таъминлашда большевик тарғибот устунлиги қилади. Муҳолифатдаги